



SHAXS FAOLIYATIDA HARAKAT VA MOTIVATSIYANING TUTGAN O'RNI

Yunusaliyeva Barnoxon Yuldashevna

Farg'ona shahar 23-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Motivatsiya-odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui bo`lib, xulq atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni hisoblanib unga tashabbus, yo`nalganlik, tashkilotchilik, qo`llab-quvvatlash kiradi.

Kalit so'zlar:: Shaxs faoliyati. Motiv. Motivatsiya. Inson xulq atvorining ichki barqarorligi. Xulq atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni.

Motivatsiya- odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui bo`lib, xulq atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni hisoblanib unga tashabbus, yo`nalganlik, tashkilotchilik, qo`llab-quvvatlash kiradi. Motirovka deganda inson xulq atvorini tushuntirish bo`lib, unda «Nima uchun?», «Fanday maqsad bilan?», «Fanday ma'noda?» kabi savollarning motivatsiyaga bog`liqligidir. Insonni xatti-harkati va ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq faoliyatga undovchi sababga motiv deyiladi. Odamning faoliyat motivlarini o`rganish shaxsning ma'naviy-psixologik mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Kishilarning xulqatvoriga qarab, uning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning motivlarini aniqlashga intilish lozim. Shunda xatti-harakatlarni odam uchun tasodifiy yoki qonuniy ekanligini anglash mumkin bo`ladi. Bunday xatti-harakatlarni yana takrorlanishini oldindan ko`ra olish, shaxsiy holatlarning ayrimlarini yuzaga keltirmaslikning oldini olish, boshqalarning taraqqiy etishini qo`llab-quvvatlash mumkin. Ba'zilar mehnatgao`uz ehtiyojlariga ko`ra sidqidildan munosabatda bo`lsalar, ba'zilar o`z burchlarini anlaganliklaridan, yana ba'zilar o`zlarining qobih niyatlariga erishish uchun vaqtincha sun'iy munosabatda bo`ladilar. Motivatsiya inson



xulq atvori, uning bog`lanishi, yo`nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Psixologiyada motivlashtirish deganda psixologik hodisalarning o`zaro mustaqil bog`langan, lekin bir-biriga to`la mos kelmaydigan nisbatan mustaqil uchta turi tushuniladi;

a) Individning ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq bo`lgan faoliyatga undovchi sabablar sifatidagi motivlashtirishdir. Faollik holatini paydo bo`lishini sub`ektiv ehtiyojlarini izohlab beradi.

b) Motivlashtirish faollik kimga qaratilgani boshqa xulq-atvor emas, balki xuddi shunaqasi tanlaganligini izohlab beradi. Motivlar xulq-atvor yo`nalishini tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bular birgalikda kishi shaxsining yo`nalishini tashkil etadi.

v) Kishi axloqi va faoliyatini boshqaradigan vosita hisoblanadi. Bularga emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar kiradi.

Ustanovkalar - yo`nalish, yo`naltirish ma`nosini anglatib, kishining tevarak atrofdagi odamlarga yoki ob`ektga nisbatan qanday munosabatda bo`lishlarini, ularni idrok qilinishi, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorgarligini anglatadigan holatdir. Yo`naltirilgan faoliyat sub`ektning ma`lum vaziyatda faol yo`l topib keta oladigan harakatlari majmuidir. Yo`nalish – tug`ilgan yo`l, maqsad sari shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat`iy nazar ma`lum yo`lga yo`naltiruvchi barqaror motivlar majmuidir. Ular asosiy, etakchi va bosh ehtiyojlar, qiziqishlar, moyillik, e`tiqod, dunyoqarashlar, yuksak g`oyalar bilan xarakterlanadi. Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Inson ehtiyojlari, maqsadi, istagi, qiziqishlari shaxsiy holatlardir. Ehtiyoj - jonli mavjudodning hayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir. Amerikalik psixologik A.Maslou «Inson ehtiyojlarini ierarxiya» tizimlarini quyidagicha tavsiya etadi: Motivatsiyaning bir necha psixologik nazariyalari mavjud:



1. Qaror qabul qilish nazariyasida ta’kidlanishicha inson ongi tafakkurga, iroda va xatti harakatni tanlash imkoniyatiga ega. Demak, inson xulqi motivining asosi aql, ong va inson irodasidir.
2. Instinktlar nazariyasida (Z.Freyd, U.Magdugall) – biologizator nuqtai nazari mavjud bo`lib, unga asosan insonga, hayvonlarga xos instinktlar biriktirilgan. XX asrning 20-yillarida instinktlar nazariyasi o`rniga inson xulq atvorini biologik ehtiyojlar bilan bog`lovchi kontseptsiya yuzaga keladi.
3. Xulq atvor motivatsiyasi nazariyasi va oliy nerv faoliyati nazariyasi. XX asr boshida paydo bo`lib, xulq atvor «Stimul – reaksiya» sxemada ko`rib chiqiladi. I.P.Pavlov va uning izdoshlari N.A.Bernshteyn va P.K.Anoxin xulq atvor dinamikasi funksional sistemasi modelini ishlab chiqqanlar.
4. Motivatsiyaga kognitiv yondoshuv nazariyasi – inson xulq atvorini tushuntirishda uning ongi va bilimi bilan bog`liq fenomenlarga alohida e`tibor beriladi.
5. Faoliyat nazariyasi (A.N.Leont`ev) ga asosan motivlarni yuzaga keltiruvchi kuchlar ehtiyojlardir.

Bundan shunday qonuniyat yuzaga keladiki, motivlar rivojlanishi faoliyat kengligining rivojlanishi bilan bog`liq bo`lib, u predmet faoliyatini tashkil etuvchisidir. Insonning emotsional hayoti, uning his-tuyg`ulari, quvonch tashvishi, xunsandchiligi azal-azaldan insonlar e`tiborini o`ziga tortib kelgan. His-tuyg`u nima? Bu - borliqni o`ziga xos aks etishi bo`lib unda insonning olamga sub`ektiv munosabati aks etadi. His tuyg`u psixik jarayon bo`lib bunda insonni borliqqa o`zining shaxsiy ichki sub`ektiv munosabatini aks etadi. Emotsiyalar - lotincha so`zdan olingan (emovere) to`lqinlashtirish ma`nosiga ega. Ichki yoki tashqi qo`zgatuvchilar ta`siriga sub`ektiv holatda ifodalovchi javob reaksiyasidir. Ya`ni hissiyot – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan bo`lgan munosabatlarimizning va munosabatlarimizdan hosil bo`ladigan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirishdir. Hissiyot o`ziga xos aks ettirish jarayoni bo`lib, bunda narsa va hodisalarning bevosita emas, balki shu narsalarning aks ettirish



jarayonidan hosil bo`ladigan ichki kechinmalari va munosobatlari aks ettiriladi. His tuyg`u psixik jarayongina bo`lib qolmay psixik holat hamdir. U xususiyat bilan xarakterlanadi. His- tuyg`uni yuzaga keltiruvchi sabab stimullardir. Faoliga ko`ra hislar stenik (kuchlik) va astenik (kuchsiz) turlarga bo`linadi. Hislar tashqi jihatdan nomoyon bo`lib ular xatti – harakatlarida, yuzda namoyon buladi. Uning tashki ifodalanishi ekspressiya deb ataladi. Ekspressiya bu – hislarning spesifik namoyon bulishi bulib, u ovozda, mimika, pantomimika, yurishda, yogi va kulguda namoyon bo`ladi. Hislar mazmuniga va qo`zgaluvchanliga qarab bo`linadi: kuchi, tezligi barqarorligiga ko`ra quyidagi emotsional holatlar ajratiladi. Kayfiyat, ko`tarinkilik. Kuchli xohish istak, affekt, stress. Hislar mazmuniga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi: axloqiy hislar, intellektual hislar, estetik hislar, proksis hislar. Emotsional holatlarga bog`lik bir necha nazariyalar mavjud. Ulardan biri Djeyms- Lange va ikkinchisi Kennon – Bart nazariyalaridir. Hissiyotlar o`zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog`liq bo`ladi. Hissiyot olamida sodir bo`layotgan narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo`lganlari haqida darak beruvchi signallar sistemasi hisoblanadi. Ma`lum qo`zg`alishlar odam uchun xotirjamlik yoki notinchlik haqidagi fikrlarga aylanadi. Ifodalangan xatti-harakat (mimika va pantomimika) signal funksiyasini bajaradi. Ular odamning kechinmalarini boyitadi, yorqinlashtiradi va boshqa odamlarning idrok kelishini yengillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. P.V.Ivanov .“Umumiy psixologiya”, 1972 yil
2. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil
3. Psixologiya izohli lug`ati. 1997 yil